ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Nemis tilidagi kolorinim tarkibli iboralarning o‘zbek tilida berilishi va ularning lisoniy tadbiqi

The Rendering of Coloronym-Based Expressions from German into Uzbek and Their Linguistic Application

Передача выражений с колоронимами в немецком языке на узбекский язык и их лингвистическое применение

Otayeva Karomatxon Matnazar qizi
UrDU xorijiy filologiya fakulteti
Lingvistika(nemis tili) 231-guruh magistranti
Email:otayevakaromat32@gmail.com
Ilmiy rahbar:Sapayeva Rayhon

Otayeva Karomatkhon Matnazar qizi
Urgench State University, Faculty of Foreign Philology
Master’s student, Group 231, Linguistics (German language)
Email: otayevakaromat32@gmail.com
Academic supervisor: Raykhon Sapayeva

Отаева Караматхон Матназар кызы
Ургенчский государственный университет, факультет зарубежной филологии
Магистрант, группа 231, Лингвистика (немецкий язык)
Электронная почта: otayevakaromat32@gmail.com
Научный руководитель: Райхон Сапаева

Annonatsiya.Ushbu ilmiy maqola "Nemis tilidagi kolorinim tarkibli iboralarning o‘zbek tilida berilishi va ularning lisoniy tadbiqi" mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, nemis va o‘zbek tillaridagi rang nomlarining frazeologizm va iboralarda qanday ishlatilishini tahlil qiladi. Maqolada ranglar frazeologizmlarining tilshunoslikdagi roli, ularning semantik, kognitiv va madaniy xususiyatlari yoritilgan. Nemis tilidagi ranglar frazeologizmlarining o‘zbek tiliga qanday tarjima qilinishi va ularning madaniy kontekstda qanday o‘zgarishi ko‘rib chiqilgan.

Abstract: This research paper is dedicated to the topic "The Representation of Color-Intensive Idiomatic Expressions in the German Language and Their Linguistic Application in Uzbek". It analyzes the use of color terms in idioms and expressions in both German and Uzbek languages. The paper highlights the role of color idioms in linguistics, their semantic, cognitive, and cultural characteristics. It also examines how German color-based idioms (e.g., Schwarz wie die Nacht, Rote Karte zeigen) are translated into Uzbek and how they undergo changes within a cultural context.

Аннотация. Данная научная статья посвящена теме «Передача фразеологических выражений с колоронимами в немецком языке на узбекский язык и их лингвистическое применение». В статье проводится анализ того, как наименования цветов функционируют в фразеологизмах и выражениях в немецком и узбекском языках. Рассматривается роль цветовых фразеологизмов в лингвистике, их семантические, когнитивные и культурные

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

особенности. Также исследуется, как фразеологизмы с названиями цветов в немецком языке переводятся на узбекский язык и как они трансформируются в культурном контексте.

Kalit so'zlar: Kolorinimlar,semantika,lingvistika,madaniy tafovutlar,ranglarning tildagi roli,til va madaniyat,idiomatik iboralar

Keywords: coloronyms, semantics, linguistics, cultural differences, the role of colors in language, language and culture, idiomatic expressions

Ключевые слова: колоронимы, семантика, лингвистика, культурные различия, роль цветов в языке, язык и культура, идиоматические выражения

Kirish.Frazeologizm – bu tilning to‘liq ma’no ifodalovchi, ko‘p hollarda qo‘llanishda o‘zgarmaydigan iboralari bo‘lib, ularning ma’nosi tarkibidagi so‘zlardan farq qiladi. Kolorinimlar (rang nomlari) frazeologizmning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Nemis va o‘zbek tillarida ranglarning frazeologik birikmalari ijtimoiy, madaniy va psixologik holatlarni aks ettiradi. Bu maqolada nemis tilidagi ranglar asosidagi frazeologizm va iboralarning o‘zbek tiliga tarjimasi, ularning semantik o‘zgarishlari va madaniy jihatlari tahlil qilinadi.

Kolorinimlar – bu rangni ifodalovchi so‘zlar bo‘lib, ularning frazeologizmlarda ishlatilishi ko‘plab majoziy va ko‘chma ma’no shakllarini yaratadi. Rang nomlari frazeologizmlarining tahlili tilshunoslarga tilning semantik imkoniyatlari, madaniyatning tilga ta’siri va xalqning dunyoqarashini o‘rganishga imkon beradi. Har ikki tilda rang nomlarining frazeologik birliklarda ishlatilishi o‘xshash va farqli jihatlarga ega.

Nemis tilidagi rang nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarga misollar:

Schwarz wie die Nacht (tungi qorong‘u kabi) – nihoyatda qorong‘u yoki umidsizlikni anglatadi.

Grüne Wiese (yashil o‘rmon) – yangi boshlanish yoki imkoniyatlarni bildiradi.

Rote Karte zeigen (qizil kartani ko‘rsatish) – jazo yoki qattiq ta’sirni ifodalaydi.

O‘zbek tilidagi rang nomlari:

Qora kun ko‘rmoq – qiyinchiliklarni boshdan kechirish.

Oq yuzli bo‘lmoq – halol va to‘g‘ri bo‘lish.

Yashil chiroq yoqmoq – ruxsat berish, ma’qullash.

Nemis va o‘zbek tillaridagi ranglar va ularning frazeologizmda ishlatilishi turli madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni aks ettiradi. Har bir tilda rang nomlari o‘zining semantik xususiyatlariga ko‘ra

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

frazeologik birikmalarda o‘ziga xos ma’no va tasavvurlarni yaratadi. Nemis tilidagi rang nomlari frazeologizmida ko‘pincha salbiy yoki noxush holatlar aks etadi, o‘zbek tilida esa ranglarning ko‘proq ijobiy ma’nosi mavjud.

Nemis tilidagi “Jemandem schwarzer Peter zuschieben” (qora Pyotr) – jiddiy muammolarni yoki o‘z vazifasini bajara olmagan kishini va o‘zining aybini birovga to‘nkaydigan kimsaga nisbatan anglatadi. O‘zbek tilida esa, bu kabi ibora to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmaydi.Bu iboraga mos muqobili sifatida “kimningdir betiga qorakuya surtmoq”iborasi ishlatiladi.Lekin qora kun ko‘rmoq yoki qora ishni qilish kabi iboralarining aynan nemis tilidagi teng qiymatli ekvivalentlari ishlatiladi.

Schwarzmarkt- qora bozor
Schwarzarbeit-qora ish
Schwarzer Tag-qora kun
Schwarz tragen-qora kiymoq

Shuningdek,“blaues Blut haben” bu iboraning to’liq ma’nosi o’zbek tilidagi “oqsuyak”iborasiga mos keladi.So’zma-so‘z tarjima qilganimizda bu ibora “ko’k qonli bo‘lmoq” degan ma’noni bildiradi.Chunki iboraning 1800-yillar atrofida Yevropada paydo bo’lgan va oq tanli boy,zodagon oila vakillarining qo’llaridagi vena tomiralari ko’rinib turgan.Oddiy odamlarda yoki dala ishchilarida esa quyoshning jaziramsida ham ko’p mehnat qilganliklari sababli ulardagi tomirlar uncha ko’rinmagan.Shu sababdan bu ibora paydo bo’lgan.O’zbek tiliga esa bu ibora “oqsuyak” shaklida kirib kelgan. Qozoq tarixida Chingizxonning avlodlari-xonlar,sultonlar- Oqsuyak hisoblangan. Ular zodagonlar deb atalgan va xalqning alohida e'tiboriga sazovor bo‘lgan.

Ranglarning frazeologik ma’nosi har ikki tilda ham ko‘pincha majoziy va o‘zgargan holda ishlatiladi, bu esa ularning tildagi ko‘plab funksiyalarini kengaytiradi.Kolorinimlar tarkibli frazeologik birliklarning lisoniy tadbiqi til va madaniyatni o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Ranglar frazeologizmning asosi sifatida ijtimoiy, psixologik va hissiy holatlarni aks ettiradi, shuningdek, lingvistik madaniyatni tushunishga yordam beradi.Shuningdek,bizga rang komponentki frazeologik birliklarni tushunishimizda semantic ekvivalentlar,kognitiv yondashuv va madaniy o‘zgarish kabi bir qator muhim omillar bevosita xizmat qiladi.Chunki nemis tilidagi rang nomlari va frazeologizmning o‘zbek tiliga tarjimasi ko‘pincha semantik ekvivalentlar asosida amalga oshiriladi. Misol uchun, nemischa blaue Augen haben (ko‘k ko‘zlari bor bo‘lmoq) iborasi o‘zbek tiliga ko‘k ko‘zli bo‘lish deb tarjima qilinsa, bu ibora o‘zbek tilida ham yuqori darajani yoki jozibadorlikni bildiradi.Bundan tashqari,kolorinim tarkibli frazeologizmlarni kognitiv yondashuv orqali tahlil qilish ranglarning tildagi o‘rni va ularning ijtimoiy holatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Nemis tilida schwarzer Humor (qora hazil) iborasi qiyin vaziyatlarda kulgili yoki masxara qilishni bildiradi, o‘zbek tilida esa qora hazil salbiy yoki og‘ir hazil sifatida qabul qilinadi.

Madaniyatlarning farqlari ranglarning frazeologik birliklarida qanday ishlatilishiga ta’sir qiladi. Masalan, o‘zbek tilida oq rangi tozalikka, halollikka ishora qilsa, nemis tilida weiße Weste haben (so‘zma-so‘z:oq nimcha kiyish) iborasi samimiylik,to‘g‘rilikni bildiradi va o‘zbek tilidagi “vijdoni pok bo‘lmoq” iborasiga muqobil bo‘la oladi. Bu o‘xshash ma’no saqlansa-da, har bir tilning madaniy xususiyatlariga qarab, rangning frazeologik ma’nosi o‘zgaradi.

Xulosa.Nemis tilidagi kolorinim tarkibli frazeologizm va iboralarning o‘zbek tiliga tarjimasi va tadbiqi tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Rang nomlari frazeologizmda milliy madaniyat,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

ijtimoiy holatlar va psixologik xususiyatlarni ifodalaydi. O‘zbek va nemis tillaridagi rang frazeologizm va iboralarini taqqoslash orqali ikki xalqning dunyoqarashini va mentalitetini chuqurroq tushunish mumkin. Bu mavzudagi tadqiqotlar tilni o‘rganishda, shuningdek, xalqaro aloqalarda tilning madaniy va semantik xususiyatlarini tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mieder, Wolfgang (1993). Farben in der deutschen Phraseologie. Eine kognitive und kulturwissenschaftliche Analyse. Tübingen: Gunter Narr Verlag.

2. Timme, Frank (2004). Farbphraseologismen: Eine kognitive und kulturwissenschaftliche Analyse der deutschen Phraseologie. Frankfurt am Main: Peter Lang Verlag.

3. Shuxratov, U. (2015). O‘zbek frazeologiyasi: nazariy asoslar va tadqiqotlar. Toshkent: Fan va texnologiya.

4. Wanzeck, Christiane (2002). Zur Etymologie lexikalisierter Farbverbindungen: Untersuchungen zu Farbadjektiven im Deutschen. Stuttgart: Verlag.

5. Imyaminova, Z. (2018). Nemis tili frazeologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.

6. Azimov, A. (2020). Ranglar va ularning frazeologiyada ishlatilishi: O‘zbek va nemis tillarining solishtirish tahlili. Toshkent: O‘zbek davlat pedagogika universiteti nashriyoti.

7. Mansurov, R. (2017). Kolorinim va frazeologizmlar: O‘zbek va nemis tillaridagi tahliliy yondashuv. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.

8. Goryunova, N. (2012). Frazeologiya i semantika: Teoriya i praktika. Moskva: Yazyki slavyanskoy kultury.

9. Shon, M. (2011). Ranglarning frazeologizmda roli: Nemis va o‘zbek tillaridagi kolorinimlar. Berlin: De Gruyter Verlag.

10. Reuter, B. (2009). Kognitives Modellieren in der Phraseologie: Farben in der deutschen Sprache. Hamburg: Verlag.